ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Komilova Dilnoza Muhammad qizi

Farg‘ona davlat universiti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi(PhD)

d.komilova0893@gmail.com +998998305880

MATNNING MAZMUNIY BIRLIGI

CONTENT UNIT OF THE TEXT

СОДЕРЖАТЕЛЬНАЯ ЕДИНИЦА ТЕКСТА

Annotatsiya: Ushbu maqolada matnning tarkibiy elementi hisoblangan detal hususida mulohazalar, unga filologik yondashuv, matnning kichik elementi sifatida qarash, e’tirof etish, so‘z birikmalari, gap paradigmalari, matn negizida tahlil qilish borasidagi nazariy masalalar bayon qilingan.

ANNOTATION: This article describes the theoretical issues regarding the details, which are considered as the structural element of the text, the philological approach to it, the view of it as a small element of the text, recognition, word combinations, sentence paradigms, and analysis on the basis of the text.

АННОТАЦИЯ: В данной статье раскрыты теоретические вопросы относительно детали, которая рассматривается как структурный элемент текста, филологический подход к ней, взгляд на нее как на малый элемент текста, распознавание, словосочетания, парадигмы предложения, анализ на предмет. основу текста.

Kalit so‘zlar: badiiy detal, konstant, reprezental, tasviriy detallar; aniqlashtiruvchi detal , xarakter, implitsit, badiiy matn, yashirin ma’no.

Keywords: artistic detail, constant, representational, descriptive detail; clarifying detail, character, implicit, artistic text, hidden meaning.

Ключевые слова: художественная деталь, постоянные, изобразительные, изобразительные детали; уточняющая деталь, характер, неявный, художественный текст, скрытый смысл.

Kirish (Introduction). Badiiy detalni matnning mazmuniy birligi jihatidan o‘rganish lingvistika fani uchun yangi soha hisoblanadi. Badiiy matn dunyoni, uning markazidagi insonni, uning dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu maqsadni ifodalashda ijodkor so‘zlardan foydalanadi. Bunday murakkab jarayonni badiiy tasvir o‘z zimmasiga oladi. Obrazni so‘zlatish har doim ham to‘liq axborotni ifodalab bera olmaydi. Shu sababli muallif badiiy matn tarkibidagi obrazga tegishli bo‘lgan uning atrofidagi harakatlar, nutqiy xususiyatlar, imo-ishoralar, lanshaftlar, interyerlar, portretlarda tasvirlanuvchi ekstralingvistik vositalarni kiritadi va bu matnda badiiy detallarning murakkab tizimini tashkil qiladi. Detal fransuz tilidan olingan bo‘lib, “qism”, “bo‘lak” degan ma’nolarni ifodalaydi. Detal o‘zining lug‘aviy ma’nosidan tashqari qo‘shimcha ma’no tashuvchi matnning kichik elementidir. Muallif yaratayotgan matniga hos va mos bo‘lgan narsa-buyumlarni tanlab oladi va ularga mazmun yuklaydi. Badiiy detalga oid daslabki qarashlar va birlamchi tushunchalar XX asrning 70-80 yillarida shakllana

boshladi. Bu vaqtda badiiy detalga poetik jihatdan yondashilgan. Amalga oshirilgan tadqiqot ishlari o‘zining mazmunan xilma-xilligi bilan, o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy mafkurasiga xizmat qilishi bilan ajralib turgan. Badiiy detalga matn lingvistikasining tadqiqot obyekti sifatida qarash XXI asrning daslabki o‘n yilligiga to‘g‘ri keladi. Badiiy detallarning tadqiqiga bag‘ishlangan daslabki tadqiqotlarda detal haqidagi tushunchalar, ularning differensial va integral hususiyatlari, matn bilan o‘zaro bog‘lanish haqidagi qarashlar badiiy adabiyot tamoillari asosida tahlil qilindi. Badiiy detalni poetik jihatlarini o‘rganish ustivorlik qildi. Badiiy detalga filologik yondashuv, matnning kichik elementi sifatida qarash, e’tirof etish, so‘z birikmalari, gap paradigmalari, matn negizida tahlil qilish esa e’tibordan chetda qoldi. Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida ham bu sohadagi ishlarning mazmuni yuqoridagi qarashlar bilan belgilanadi. O‘tgan asrdan boshlab shu kunga qadar badiiy detal bo‘yicha yaratilgan ishlar o‘z davriga nisbatan sohasidagi dolzarb muammolarni ma’lum darajada bajarib keldi. Har bir tadqiqot ishlari o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalar asosida badiiy detal haqidagi tasavvurlarni to‘ldirishga xizmat qildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Nolisoniy vosita hisoblangan badiiy detal so‘nggi paytlarda tilshunoslarning tobora ko‘proq e’tiborini tortib kelmoqda. Tilshunoslikda detal badiiy matnning kichik elementi sifatida qaraladi. Rus olimlari Y.A.Mukarjovskiy, M.A.Bereznyak, Z.P.Guzar, N.I.Kolodina, V.A.Kuxarenko, I.A.Shirova, A.A.Chernyakov, A. B. Esin, A. И .Трубкина tadqiqot ishlarida badiiy detalning tavsifi va ta’rifiga turlicha yondashuvlar mavjud.

Badiiy detal umumiy ma’noda u yoki bu narsa haqidagi axborotga xos fragment qismi sanaladi. Rus olimlari formal poetikada individual yondashuv asosida badiiy matnda hosil bo‘luvchi vosita sifatida badiiy detalni nazarda tutadilar. M.A. Bereznyak detal muammolariga filologik yondashuv taklifini beradi. Lingvistik aspekt nuqtai nazaridan obrazning vujudga kelishi lisoniy birliklar bilan bog‘liq holda matnda detalni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun M.A.Berezyank detalni asar strukturasidagi minimal kommunikativ element deb nomlaydi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, detalning funksional xususiyatlari detallarni hosil qiluvchi so‘z materiallarini aktuallashtirishga bog‘liq. Bunda detal matnidagi obrazli sistemada asosiy rol o‘ynaydi. Badiiy matn sistema sifatida qaralganda va unga struktur yondashilganida badiiy detal struktur element sifatida talqin etiladi. Ayni paytda badiiy detal shu sistemaning tarkibiy qismi sanaladi. U mazmuniy birlik sifatida muallifning maqsadi va kommunikativ niyatini ifodalashga xizmat qiladi. Struktur semiotik poetikada badiiy detal badiiy matnning materialini shakllantirishda ishtirokchi emas, matnni qabul qiluvchi jarayon ishtirokchisi sifatida o‘rganiladi. Lingvopoetika sohasining rivojlanishi bilan bog‘liq tarzda nafaqat formal, balki asarning mazmuniy tomoni o‘rganila boshlandi. Tadqiqotchilar badiiy detalni matn kategoriyasi deb qaramadilar, balki bu tushunchalarga oid farqlanish masalasiga e’tibor qaratdilar. Sababi badiiy detal shu vaqtga qadar o‘zining aniq ta’rifiga va talqiniga ega bo‘lmagan edi.

M.A. Berezyank funksional va parametr belgilari natijasida detalning uch tipi ajratadi:

konstantlashtiruvchi detal – vizual ma’noni lisoniy birliklar bilan yuzaga chiqaradi, ishonchlilik effektini hosil qiladi;

implitsitlashtiruvchi detal – leksik birliklar ma’nosiga nisbatan bir vaqtda aktuallashishiga qarab xarakterlanadi.

Reprezental detal – idrok qiluvchi – detalning bu turida matn elementlari birlashadi. [7. 605] Bir vaqtning o‘zida lisoniy birliklarning ikki ma’nosi yuzaga chiqadi: lug‘atlarda qayd etilgan ma’no va kontekstdagi ma’no. Detallarni qabul qilish ikki bosqichda amalga oshadi. Tushunishning semantik stadiyasi deb nomlanadi. Muallif tomonidan kontekstga olib kirilgan detalni sezgi a’zolari yordamida idrok qilish jarayonini, unga xos bo‘lgan signifikat farqlaydi. Detalga xos vizual ma’noni tanish va kontekstdagi ma’nodan farqlash bir vaqtda ro‘y beradi. Vizual ma’noni tanib olish tushunishning semantik bosqichi sanaladi. Tushunishning semantik bosqichi paradigmatik va sintagmatik bosqichda asosiy ro‘l o‘ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). I.A.Shirova ta'kidlashicha, "badiiy detal syujetga ta'sir ko'rsatuvchi vositadir", deb ko'rsatadi. "Detallarning barcha turlari bir-biri bilan iyerarxik aloqada bo'lib, dastlab aniqlash past iyerarxik darajada bo'ladi, so'ngra yuqori darajadagi turlar sifatida implikatsiyadan keyin keladi" deb yozadi I.A. Shirova.[11.120] U badiiy detalning ikkita tasnifini ishlab chiqdi: funktsional-semantik va gnoseologik. Funktsional-semantik jihatdan detalni tashkil etuvchi leksik birliklarning semantik tuzilishidagi o'zgarishlarini ko'rib chiqadi va quyidagi turdagi detallarni ajratadi: hissiy jihatdan neytral, hissiy jihatdan xilma- xil.

Ushbu tipologiyani ishlab chiqishda tilshunos detalni tashkil etuvchi til birliklarining aksiologik, emotsional va ekspressiv foniga qarab hikoyaga o'ziga xos hissiy ohang berish va asarni u yoki bu hissiy kalitda ushlab turish qobiliyati bevosita matn hisobga olinishini yozadi. Funksional-semantik tasnifda semantik va emotsional-estetik mezonlarga asoslanadi. Birinchisi, detalning ishlashi va uning mazmunli xususiyatlarining og'zaki materialning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liqligini aniqlaydi. Uni shakllantirishning lingvistik mexanizmini ochish imkonini beradi. Ikkinchi mezon detal substantiv xususiyatlarini aks ettiradi. Obraz xarakterni namoyon bo'lishida asosiy vazifa bajaradi.

V.A. Kuxarenko esa detallarni funksional belgilari asosida to'rt guruhga ajratadi: 1. Tasviriy detallar;

2.Aniqlashtiruvchi detallar;
3.Xarakterologik detallar;
4.Implitsitlashtiruvchi detallar.[6.188]

Semiotik nuqtai nazardan, A.K. Долинин "badiiy detal tasvirlanayotgan holat, sifat, jarayonning belgisi, tashqi ko'rinishidir. Bu fiziologik reaksiya, imo-ishora, uy-ro'zg'or buyumlari, xarakterli so'z yoki harakat bo'lishi mumkin. Detal kontekstga qarab turli xil ma'noga ega bo'lishi mumkin va bu ma'noda u subtekstni idrok etishning alohida holati sifatida namoyon bo'ladi" deb yozadi.

Z.P. G'uzor detal hususida "badiiy tafakkur jarayonidagi o'ziga xos bir lahzani aks ettirishga yordam beruvchi asarning hujayrasidir" deb yozadi. Lingvistik komponent ushbu ahamiyatsizdek ko'ringan vositaga tasvirni yaratish va badiiy matn g'oyasini etkazishda matnning ierarxik tuzilishida muhim o'rin egallashga imkon beradi.

A. B. Esin detallarni ikki turini ichki va tashqi detallar tasnifini taklif qiladi. Tashqi detallarga obrazning yashash joyi, ko'rinishi (portret, landshaft va material), ichki detallar esa shaxsning ichki dunyosini - psixologik tafsilotlar orqali tavsiflash deb o'rganadi. А. И.Трубкина esa badiiy detalning vazifalari ko'pincha sinkretik bo'lishini va bu badiiy matn bilan birgalikda amalga oshishini ta'kidlaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Detalning mazmuni tagma'no tushunchalari bilan bog'liq tarzda yozuvchining maqsadi asosida yopiq tekstda berilgan axborotlarning ifodalanish usullari bilan izohlanadi. Shu ma'noda badiiy matnning pragmatik tili aynan nolisoniy vositalarida ko'rinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Березняк.М. А. Типы и функции художественной детали в англоязычной прозе: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук / М.А. Березняк - Одесса, 1986. -21 с.
2. ГузарЗ.П. Художественная деталь в произведениях Ивана Франко бориславского цикла: Автореф. дис.... канд. филол. наук / З.П. Гузар. - Львов, 1970.

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

3. Добин Е. Искусство детали: Наблюдения и анализ / Е. Добин. - Л., 1975.190 с.
4. Есин А. Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. М.: Флинта, 2011. 248 с.
5. Щирова И. А. Психологический текст: деталь и образ / И.А. Щирова. - СПб.: Филологический фак-т СПбГУ, 2003. - 120 с